

BUXORO VILOYATIDA INKLYUZIV TURIZMNI RIVOJLANTIRISH VA SOHADA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI

Nutfillo Salimovich Ibragimov¹, Erkin Alimovich Farmanov^{1,2}, Bekzod Sherzodovich Sharipov¹

¹*Buxoro davlat universiteti*

²*Vengriya qishloq xo'jaligi va tabiiy fanlar universiteti*

KEYWORDS

Nogironligi bor shaxslar, tig'izlik, mobil ilova, universal turizm, innovatsion texnologiya, integratsiya, qulay muhit, IncUZ

ABSTRACT

Mazkur ilmiy maqolada Buxoro viloyatining eski shahar hududida hozirgi kunda tobora murakkablashib borayotgan tig'izlik muammolarini bartaraf etishda innovatsion yechimlar, xususan inklyuziv turizmni rivojlantirish jarayonlarida raqamli texnologiyalarni qo'llash samaradorligi xususida so'z yuritilgan. Ko'plab zamonaviy mobil ilovalar hamda onlayn servislar onlayn xaridlarga qo'shimcha impuls berishga yo'naltirilgan bo'lib, turizmga ixtisoslashgan ilovalarning turizm bozoriga, sohaning yondosh tarmoqlariga ta'sir imkoniyatlari yetarli darajada chuqur o'rganilgan emas va bu yo'nalishda hali ko'plab ilmiy izlanishlar amalga oshirilishi lozim. Tadqiqotda mazkur masalalar atroflicha o'rganilib, mualliflar tomonidan IncUZ mobil ilovasini ishlab chiqish bo'yicha aniq takliflar berilgan, mavzu doirasida xulosalar chiqarilgan.

Kirish

2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Prezident Farmoniga[2] muvofiq To'siqsiz turizm infratuzilmasini mamlakatning asosiy turizm shaharlarida keng joriy qilish, Jumladan, to'siqsiz turizm yo'nalishida jahon tajribasini o'rganish hamda tegishli standartlarni ishlab chiqish, turistik tashkilotlar tomonidan mazkur yo'nalishdagi xorijlik va mahalliy sayyohlar sayohatini tashkil qilganlik uchun rag'batlantirish choralari hamda uning mexanizmlarini ishlab chiqish, tadbirkorlik subyektlari orasida to'siqsiz turizm va uning afzalliklari yuzasidan tushuntirish ishlarini UNWTO bilan hamkorlikda tashkil qilish belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ—135-

son qaroriga muvofiq: "respublikaning turizm salohiyatidan to'liq va samarali foydalanish, birinchi navbatda transport-logistika va turizm infratuzilmasidagi muammolarni tezkor hal etish, shuningdek, mavjud resurslar va imkoniyatlardan har tomonlama foydalanish hisobiga turizm sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish, hududning turistik salohiyatini oshirish, mahalliy va xorijiy turistlar sonini ko'paytirish bo'yicha takliflar tayyorlash" belgilangan. Shunga muvofiq nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan hududlar inkyuzivligini oshirish va rivojlantirishga oid dasturlar, rejalarini chuqur o'rganish hamda tahlil etish, davlatlararo e'tirof etilgan uslubiyotlarni milliy rivojlanish strategik rejalarimizga integratsiya qilish orqali turistik hududlar inkyuzivligini shakllantirish va hududlar jozibadorligini oshirishga erishiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Nogironligi bor shaxslarga mo'ljallangan mobil ilovalarni ishlab chiqish zarurati va imkoniyatlari xususida bir qator xalqaro olimlar izlanish olib borishgan. Jumladan, N.Ostdick fikriga ko'ra, sayohatlar uchun mo'ljallangan

mobil ilovalar turizm xizmatlarini ko'rsatuvchi kompaniyalarga mijozlar bilan muloqot o'rnatish va sayohatgacha, sayohat davomida hamda sayohatdan keyin ularni qo'llab-quvvatlash uchun to'g'ridan-to'g'ri kanal vazifasini bajarib beradi[17].

A.Prasetio hamda V.Brilianna mobil ilovalarni chuqurroq tahlil etish vositasida ularning turistlarda sayohatni takroran amalga oshirish istagini nechog'lik darajada uyg'ota olishi, information qoniqish kabi yo'nalishlarda tadqiqot ishlarini olib borgan[6].

A.Izzah, I.Kusuma, Y.Irawan, T.Cinderatama va B.Nugroho androidga asoslangan shahar bo'ylab ekskursiyalarga mo'ljallangan ilovani tadqiq etgan[9].

O.E.Pirogova va A.B.Mustafinalar inklyuziv turizmning tibbiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy modellarini ishlab chiqishgan. Ularning fikricha, inklyuziv turizm rivojlanishidan olinadigan iqtisodiy foyda hamon turistik obyektlar qulayligini yanada yaxshilashda yaqqol ko'zga tashlanadi. Britaniyalik tadqiqotchilarning iqtisodiy jabhaga urg'u qaratilgan tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, o'rtacha statistik ko'rsatkichlarga ega bo'lgan nogironligi bor turist oddiy o'rtacha statistik ko'rsatkichga ega turistga nisbatan dam olishga ko'proq pul sarflaydi. Shuningdek, aynan shu segmentdagi turistlar dam olishga ko'proq vaqt sarflashadi hamda bir yilda bir necha marotaba sayohatga chiqadilar[10].

H.N.Do, Q.A.Ha va W.Shih texnologiyalarni qabul qilish(TQQ) modeli itegratsiyasiga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlarida PLS-SEM(Partial-Least-Squares Structural Equation Modeling) – modeli yordamida turistlarning xarid bilan bog'liq xulq-atvoriga mobil ilovalarning ta'sir etish darajasini o'rgangan[11].

Inklyuziv turizm tushunchasini aniqlashda R.Scheyvens va R.Biddulph inklyuziv turizm rivojlanishining turli xil 7 ta elementlarini ilgari surishgan. Ularning fikriga ko'ra, bu elementlar inklyuziv turizmni tadqiq qilishning yo'nalishlarini aks ettiradi. Inklyuziv turizm esa analitik konsept hamda intilish idealidir. Turizm eksklyuziv sanoat sifatida tushuniladi shuning

uchun, ko'p hollarda inklyuziv turizm e'tibordan chetda qoldiriladi[12].

D.Buhalis, E.Michopoulou[13], T.Dickson, L.Misener, S.Darcy[14], S.Liasidoua, J.Umbelinob va É.Amoringa[15], A.Naniopoulos, P.Tsalis, D. Nalmpantis[16], ko'ra barcha turistlar shaxsiy, madaniy, ijtimoiy, hamda iqtisodiy shartlar hamda sharoitlarga ko'ra va albatta tanlovlari hamda afzalliklariga ko'ra alohida ehtiyojlarga ega hisoblanadilar. Ayrim toifadagi turistlarning alohida ehtiyojlari mavjud bo'lib, ularning sayohatlari maxsus texnik uskunalar va alohida qarovchi xizmati hamrohligida amalga oshiriladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqot dunyo miqyosida internet va mobil qurilmalardan foydalanishning kengayib borishi, mobil ilovalarning ommaviylashib borish jarayonlarini xalqaro va mahalliy statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilishga asoslanadi. Shuningdek, tadqiqotda 2022-yildan buyon amalga oshirilgan empirik kuzatuvlar natijasida olingan xulosalar, milliy va xalqaro statistik ma'lumotlar asos qilib olingan.

Tadqiqotchilar, inklyuziv turizm mohiyatini aniqlashtirish maqsadida, adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib inklyuziv turizm bo'yicha o'z yondashuvini taklif etib, Buxoro viloyatida turizmni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish, xususan, InclUZ mobil ilovasini yaratish orqali nogironligi bor shaxslarning turizmga ishtirokini qo'llab-quvvatlash borasida loyihalarini taklif etgan.

Tahlil va natijalar

Dunyo miqyosida inklyuzivlik mavzusi dolzarb va eng ko'p muhokama qilinadigan mavzular sirasiga kiradi. Bu borada Yevropada inklyuzivlik borasida qarashlar juda rivojlangan bo'lib, bir qator uzoq istiqbolli dasturlarda Yevropa mamlakatlari va uning aholisini odatiy hayot kechirishga sezilarli ta'sir ko'rsata oladigan o'zgarishlar kutayotgani hamda bu kabi o'zgarishlar Yevropa Ittifoqi mamlakatlari oldiga innovatsiyalarni yanada kengroq tarzda joriy etishni, istiqbolli inklyuziv jamiyat va iqtisodiyotni barpo etishning muvaffaqiyatli senariylarini ishlab chiqish va ushbu jarayonda

o'tmishda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni takrorlamalik hamda inklyuziv qayta tiklanish, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishish pirovard maqsad sifatida ko'rilmogda. Biroq, demografik o'zgarishlar, raqamli texnologiyalar, avtomatizatsiya, atrof-muhit degradatsiyasi hamda kam uglerodli iqtisodiyotga o'tish – kabi omillar ko'p o'lchovli, o'zaro bog'liq ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni yuzaga keltirmogda.

Shu bilan bir qatorda dunyoning ko'plab mamlakatlarida tobora kuchayib borayotgan tengsizlik, qashshoqlik, ijtimoiy izolyatsiya, mehnat bozorida yuqori kvalifikatsiyali kadrlarga ehtiyojlar polyarizatsiyasi bandlik va ish haqqi konvergentsiyasi kuzatilmogda. Bu esa tengsizlik ijtimoiy va hududiy hamjihatlikka, iqtisodiy o'sish hamda hayot kechirish darajasi yaxshilanishiga bevosita xavf solmogda. Ayniqsa pandemiya singari ulkan sinovdan o'tgan, uning ortidan inqirozli davrni boshidan o'tkazgan davlatlar yanada kuchli bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy qayta tiklanish jarayonida yuzaga kelayotgan imkoniyatlardan foydalanish orqali shakllantirilayotgan o'zaro jips, integratsiyalashgan va inklyuziv dunyoda bu kabi muammolar albatta yechim topishi zarur.

Destinatsiyalar turizmning yadrosi hisoblanadi va turist uchun iste'mol va taasurot olishni ta'minlovchi muhim nuqtadir. Jahon turizm tashkiloti(UNWTO)ga ko'ra: "sayohat uchun asosiy destinatsiya – safarni amalga oshirish uchun qaror qabul qilish (markaziy) hududi" sifatida izohlanadi va u turistik safar bilan chambarchas bog'liq. Shunga ko'ra destinatsiyani boshqarish va inklyuzivligini ta'minlash turizmning keng ko'lamli turlariga, turistik talabga sezilarli ta'sir ko'rsatadi hamda barqaror menejment destinatsiya va soha istiqboli barqarorligi hamda inklyuzivligi asosi vazifasini bajaradi.

Turistlar har doim destinatsiya manfaatdor tomonlari(boshqaruv va servis nuqtai nazaridan)ning bir qismi sifatida ko'rilishi maqsadga muvofiq, boisi ularning hatti-harakatlari bevosita destinatsiya va uning barqaror rivojlanishiga ta'sir etadi. Ya'ni taklif nuqtai nazaridan xizmat ko'rsatish sohasi vakillarigina emas balki talab nuqtai nazaridan iste'molchi(turist)larning keng qamrovi ham destinatsiya manfaatdortomonlari tarkibiga kiradi,

bu esa inklyuziv segmentga kiruvchi turistlar ham bevosita barqaror destinatsiya rivojlanishiga aloqador ekanligini va sezilarli ta'sir kuchiga egaligini tasdiqlaydi.

Destinatsiyalarning an'anaviy rivojlanib borishi sharoitida hudud marketingiga sarflangan mablag'larning ulushi menejmentga sarflangan sarf-xarajatlarga nisbatan ko'proq hisoblanib, bu yondashuvni o'zgartirish fursati allaqachon yetib kelgan. Destinatsiyalar talab va unga ta'sir etuvchi omillarga, resurslar, aktivlar – tabiat, madaniyat, kapitalning mavjudligi va albatta turistlarni jalb qila oluvchi inklyuziv infratuzilmaga tayanadi. Demak, destinatsiyada inklyuziv infratuzilmaning mavjudligi turistlarni jalb etuvchi omillar orasida salmoqli o'ringa ega va destinatsiyada turizmni boshqarish hamda rejalashtirish jarayonida alohida yondashuvni talab etadi.

Afsuski bu aktivlarni noto'g'ri reinvestitsiya qilish natijasida destinatsiya biznes modelining muvaffaqiyatsizligiga sabab bo'lish ehtimollari ortib, mavjud aktivlar, resurslar noto'g'ri sarflanishiga va eng yomoni butunlay yo'q bo'lib ketishiga olib keladi. Turli subyektlar ongli ravishda va ko'pincha o'zlari sezmagan holda o'z qarorlari va hatti-harakatlari vositasida destinatsiya inklyuzivligining shakllanishi va rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadilar. Vaholanki inklyuziv turizm destinatsiyalarining shakllantirilishi, rivojlantirilishi tabiiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy muhitga juda katta ijobiy ta'sirini o'tkaza oladi va aynan turli darajadagi subyektlar bundan katta manfaat ko'rishlari mumkin.

Jahon turizm tashkiloti(UNWTO) tomonidan globaldit jamoasi bilan hamkorlikda inklyuziv turizm destinatsiyalari bo'yicha taklif nuqtai nazaridan model ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu model yondashuviga ko'ra inklyuzivlik imkoniyati cheklanganlar segmentini turizm xizmatlaridan foydalanishlari va undan bahramand bo'lishlari uchun shakllantirilgan turizm tizimidir.

Modelning asosiy mohiyati jamiyatning turizmga ishtiroki cheklangan guruhlarini turizm faoliyatidan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash, shuningdek, ularni turizm xizmatlaridan foydalanish imkoniga ega bo'lgan segmentga aylantirish maqsadida turli xil destinatsiyalarda – hududlarda o'zini oqlagan tamoyillar, yondashuvlar va davlat siyosati

vositalaridan foydalanishdan tashkil topgan. Model BMT(UN) ning barqaror rivojlanish 2030 maqsadlariga va Jahon turizm tashkilotining(UNWTO) turizm barqaror rivojlanish yili doirasida ilgari surilgan maqsadlariga mos keladi[].

Inklyuziv segmentga kiruvchi insonlar asosan qaysi yo'nalishda sayohat qilishni afzal deb bilishlari, mavsumiylik e'tiboridan qaysi fasllarda ko'proq sayohatga chiqishni maqul ko'rishlari, taklif nuqtai nazaridan qanday tur mahsulotlarni taqdim etish maqbul variant ekanligini inklyuziv turistlar psixologiyasini tadqiq etmasdan aniqlashning imkoni mavjud emas.

Inklyuziv turizm hayotning turli sohalari bilan uzviy bog'liq bo'lgan turizm shakli hisoblanib, dizayn, tibbiyot, psixologiya, atrof-muhit muhofazasi, arxitektura, ona va bola sog'ligini asrab-avaylash, kekxa yoshdagi insonlarni qo'llab-quvvatlash, nogironligi bor insonlarning jamiyat hayotidagi rolini oshirish va yanada mustahkamlash singari qator jihatlarni o'zida mujassam etadi.

Inklyuziv turizm bozori juda ulkan hisoblanib, dunyo aholisining 16 foizi nogironlikning u yoki bu turidan aziyat chekmoqda va tabiiyki mobil qurilmalar va gadjetlar barcha insonlarda bo'lgani singari ushbu segment vakillarining ham hayotida muhim qismga aylanib qoldi. Sayohat istagini rag'batlantirish va ma'lum bir hududga ushbu toifaga kiruvchi insonlarni jalb etishning eng maqbul yo'li esa nogironligi bor shaxslarga moslashtirilgan mobil ilovalarni ishlab chiqish va targ'ib qilish sanaladi[7].

Shu o'rinda mamlakatimiz turizm sanoatiga oid ayrim raqamlarga murojlat qilsak. 2022-2023-yillar davomida O'zbekistonda xizmatlar eksportining 40 foizi turizm sohasiga to'g'ri kelgan hamda 283 ta mehmonxona, 486 ta xostel, 1,2 mingta oilaviy mehmon uyi barpo etilgan. Davlatimizning ochiqlik siyosati natijasida dunyo mamlakatlari bilan ikkitomonlama manfaatli aloqalar jadallashib, O'zbekistonda 90 dan ortiq mamlakat fuqarolari uchun vizasiz rejim joriy etildi[19]. Buning samarasi o'laro birgina 2023-yilda Buxoroda jami 1 million 387 ming nafar xorijiy sayyoh oqimi kuzatilgan. Joriy yil yanvar-aprel oylarida viloyatga xorijdan 455 ming 220

nafar sayyoh tashrif buyurgan. Viloyat iqtisodiga xorijiy sayyohlar tashrifidan 2023 yilda 339,1 million AQSH dollari tushum qayd etilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich joriy yil 4 oyida 113,8 million AQSH dollari qiymatidan oshdi.

2024-yilda Buxoro tumanida mavjud imkoniyatlardan 3 barobar ko'proq quvvatga ega bo'lgan, loyiha qiymati 226 million Aqsh dollarini tashkil etuvchi yangi va zamonaviy xalqaro aeroport qurilish ishlariga start berilib, bugungi kunda ham bunyodkorlik ishlari davom ettirilmoqda. Loyihaga muvofiq aeroportda haftasiga 100 ta reys yo'lga qo'yilishi rejalashtirilmoqda. Yangi aeroportda soatiga 1 ming 200 nafar yo'lovchiga xizmat ko'rsatish imkoniyati yaratilib, yo'lovchi va havo kemalariga servis sifatini oshirish orqali yangi xalqaro aviakompaniyalar jalb qilinadi[18].

2024-yil I choragida tarmoqlar va hududlar kesimida xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirishning maqsadli ko'rsatkichlariga muvofiq 2024-2026-yillar davomida qurilishi rejalashtirilgan "Boqiy Buxoro" madaniy-etnografik parki ham aynan viloyatning turistik jozibadorligini oshirish hamda mavjud tig'izlikni minimallashtirishni ko'zda tutgan holda amalga oshirilmoqda. Mazkur loyiha to'g'ridan-to'g'ri kiritiladigan, umumiy qiymati 470 million Aqsh dollari tashkil etuvchi investitsiyalar hisobiga amalga oshiriladi[5].

Viloyatning sayyohlik tizimi rivojida ziyorat turizmi alohida o'rin tutadi. Singapurda o'tkazilgan "Halal In Travel — Global Summit-2024" da viloyatdagi ijobiy o'zgarishlar munosib baholanib, bosh mukofot Buxoro viloyatiga topshirildi[20]. 1-jadvalda 2022-2026-yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari keltirildi.

Unga muvofiq, viloyatda turistlar miqdori oshib borishi va tig'izlik masalalari ham yuzaga kelishini taxmin qilish murakkab emas va bu ayniqsa eski shahar hududida kuzatilayotgan dolzarb muammo ekanligi mutasaddilar va mutaxassislar tomonidan tez-tez tilga olinmoqda. Fikrimizcha, 1-jadvalda qayd etilgan kutilmalarning amalga oshirilishida inklyuziv segmentga kiruvchi turistlarni jalb etish katta tayanch vazifasini o'tay oladi.

1-jadval

**2022-2026-yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning
maqsadli ko'rsatkichlari[2]**

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	2022-y.	2023-y.	2024-y.	2025-y.	2026-y.
1.	Ichki turistlar tashrifi soni (mln kishi)	2,4	2,9	3,4	3,8	4,1
2.	Xorijiy sayyohlar soni (ming kishi)	450,0	900,0	1,200	1,500	1 800
3.	Xizmatlar eksporti (mln AQSh doll)	121	200	230	270	300
4.	Joylashtirish vositalaridagi xonalar soni (ming)	5,399	6,131	6,721	7,336	7,976
5.	Mehmonxonalar nomyer fondining bandlik darajasi	45,0	51,0	61,0	71,0	93,0
6.	Joylashtirish vositalaridagi o'rinlar soni (ming)	12,147	13,672	14,902	16,182	17,512
7.	Mehmonxonalar soni (dona)	178	198	218	238	258
8.	Oilaviy mehmon uylari soni (dona)	264	314	325	335	345
9.	Xostellar soni (dona)	55	61	66	71	76
10.	Internet (4G va 5G texnologiyalarini hisobga olgan holda) qamrovi darajasini oshirib borish	7	8	9	10	11

Mobil ilovalarda vaqt sarflash ko'rsatkichi bo'yicha dunyo miqyosida 18-24 yosh oralig'idagi insonlar oyiga 11,6 soat ko'rsatkich bilan eng yuqori o'rinni band etishgan Ulardan so'ng 25-34 yosh oralig'idagilar 102,4 soat va 35-44 yoshdagilar 93,6 soat vaqtlarini mobil ilovalardan foydalanishga sarflashadi. Mobil ilovalarni yuklab olish bo'yicha dunyoda Xitoy 98,3 millirad ko'rsatkich bilan yaqqol peshqadamlik qilmoqda. Undan keyingi o'rinlarni Hindiston 26,6 milliard va AQSH 12,1 milliard ko'rsatkich bilan band etib turibdi. Xitoyliklar mobil ilova foydalanuvchilari har kuni o'rtacha hisobda 67 marotaba ilovalarni ochishadi va har kuni o'rtacha 7,56 soat vaqtini ilovalarga sarflaydi, shuningdek, kuniga o'rtacha 7 ta ilovadan foydalanishadi[7].

O'zbekiston Respublikasida shu vaqtga nogironligi bor shaxslar uchun inklyuziv turizm infratuzilmasining interfaol xaritasi ishlab chiqilmagan. Aynan mana shu omil e'tiboridan, biz InclUZ mobil ilovasini ishlab chiqishni va hayotga tadbiq etishni taklif etamiz. Respublikada "inklyuziv" turizm xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha alohida sertifikatga hamda inklyuziv turizm xizmatlarini taklif etish uchun qulay

shartsharoitlarga ega bo'lgan joylashtirish vositalari, umumiy ovqatlanish shahobchalari, turistik ob'ektlar, sanitar-gigienik shahobcha (xususan, smart sanitar-gigienik shahobcha)lar, turistlar uchun tashkil etilgan ko'ngil ochish maskanlarining joylashgan nuqtasi va taklif etiladigan xizmatlarini ko'rsatib beruvchi yagona mobil ilova hanuzgacha mavjud emas. Bu esa istalgan turistik obyektidagi qulayliklar haqida real vaqt rejimida ishonchli ma'lumot olishda qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Mualliflar tomonidan taklif etilayotgan Buxoro viloyati inklyuziv ziyorat interfaol xaritasi shu kabi muammolarni bartaraf etishni ko'zda tutadi.

Mazkur loyihani bajarish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6165-sonli Farmoni[1], O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-fevraldagi "Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 100-sonli Qarori[3] va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining. 2022-yil 28-

sentabrda "2022 – 2026 yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 543-son Qarori[4] ijrosini ta'minlash uchun ham xizmat qiladi.

Hozirgi iqtisodiy integrasiya va globalashuv sharoitida axborotkommunikatsiya texnologiyalarining o'z ahamiyati yanada oshib bormoqda. Turizm sohasida informatsion texnologiya va kommunikatsion tizimlarni qo'llash kundan kunga o'z ahamiyatini o'tirib bormoqda. Raqamli texnologiyalar mijozlarga sayohat bilan bog'liq masalalar borasida qarorlar qabul qilishga ko'maklashuvchi, turistik korxonalar uchun reklama va mijozlarni o'ttirish hamda jaxon bozoriga chiqishning eng arzon va shu bilan birga eng samarali yo'lidir. E'tiborli jihati esa ham mijoz, ham korxonalar uchun xarajatlarni qisqartirish evaziga katta miqdordagi mablag'larni tejashda yaqindan yordam beruvchi, qimmatli vaqt va asablarni ham asrashga yordam beruvchi omildir. Shuning uchun mamlakatimizdagi turoperator va turagentlar, mehmonxona va restoranlar, transport va xizmat ko'rsatuvchi barcha turistik korxonalar o'z faoliyatlarida raqamli texnologiyalarning keng imkoniyatlaridan samarali foydalanishni joriy etishlari hozirgi davr talabidir.

O'zbekistonda jahon tendensiyasiga hamohang tarzda axborotkommunikatsion texnologiya va tizimlar, internet, shu jumladan mobil internet jadal rivojlanib, ommalashib bormoqda. Bu esa milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash, mamlakatimiz uchun salohiyatli sanalgan ichki va xalqaro turizm sohasini rivojlantirish, uning raqobatbardoshligini oshirishning strategik yo'nalishlaridan biridir.

Loyihaning hayotga tadbiriq etilishi natijasida Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti hisob-kitoblari bo'yicha dunyo aholisining 15 foizini, aniqroq aytadigan bo'lsak 1 milliard 200 million nafarini tashkil etuvchi nogironligi bor insonlarni turizmga jalb etish imkoniyati yuzaga keladi. Buxoro viloyati ziyorat turizmini rivojlantirish uchun juda katta potentsialga ega. Dunyo aholisining 2 milliarddan ziyodini islom diniga sig'inuvchi insonlar tashkil etishini inobatga olib, ushbu raqamning 15 foizi 300 million tashkil etishini hamda ushbu 90 segmentga kiruvchi potentsial turistlarning 0,01 foizini loyiha vositasida Buxoro

viloyatiga jalb etsak yiliga eng kamida 3 million nafar turistlar Buxoro viloyatiga tashrif buyurishi mumkin bo'ladi. Alohida qayd etib o'tamizki oddiy turistlarga nisbatan nogironligi bor bo'lgan sayohatchilar turizm maqsadlariga ko'proq mablag' sarflaydilar. Qolaversa ko'p hollarda kimningdir hamrohligida turistik destinatsiyalarga tashrif buyuradilar. Bu degani biz 1 nafar turistni jalb qilish asnosida yana 1 nafar mehmonni mamlakatimizga tashrif buyurishiga erishishimiz mumkin.

O'rganishlar natijasida inklyuziv turizm terminiga ommabop turizm hamda universal turizm o'xshash ekanligi aniqlandi. Adabiyotlar va manbalarda inklyuziv va ommabop turizm terminlari juda ko'p qo'llanilgan bo'lib, universal turizm ham mazmunan ularga juda yaqin kelishi aniqlandi. Ko'plab ilmiy manbalarni o'rganib chiqib, biz quyidagi xulosalarga keldik:

Hozirga qadar inklyuziv turizm termini aniq rasmiy xalqaro darajada umum e'tirof etilgan emas. Biroq, inklyuziv turizmning anolog variantlari sifatida ishlatiluvchi hamda unga o'xshash yoki yaqin terminlar ham yagona rasmiy termin sifatida qabul qilinmagan. Mohiyatan foydalanish mumkin bo'lgan termini inklyuziv turizmga juda mos va xalqaro darajada ko'proq hamda kengroq ma'noda qo'llanilayotganini alohida qayd etgan holda, inklyuziv turizmning bu boradagi qo'llanilish doirasini pastroq baholay olmaymiz va ilmiy nuqtai nazardan uning qo'llanilish doirasini cheklab qo'yish mumkin emas deb hisoblaymiz[8].

Shunday qilib, Buxoro viloyatida inklyuziv turizmni rivojlantirish maqsadida InclUZ mobil ilovasini yaratish bugungi kunda dolzarb bo'lgan turistlarni yanada kengroq jalb etish muammosini hal etishga ko'maklashsa, ikkinchidan, ilova orqali chetraq hududlardagi madaniy meros obyektlarining qulay joylashuvini taqdim etish orqali turistik oqimni boshqarish va hududdagi tig'izlik muammosiga qisman yechim topish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari

- to'g'risida"gi PF-6165-sonli Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5283956>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-fevraldagi "Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 100-sonli Qarori
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining. 2022-yil 28-sentabrdagi "2022 – 2026 yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 543- son Qarori. <https://lex.uz/docs/-6212874>
5. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil I choragiga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 14.02.2024 yildagi 92-son <https://lex.uz/ru/docs/6801272>
6. Briliana V., Prasetyo A. B. Some antecedents and effects of using mobile apps in tourism marketing //Proceedings of the 7th International Conference on Entrepreneurship and Business. – 2018. – T. 22. – C. 270-275.
7. N.S.Ibragimov, E.A.Farmonov, B.Sh.Sharipov. Raqamli iqtisodiyot sharoitida nogironligi bor shaxslarga mo'ljallangan mobil ilovalarni ishlab chiqish xususiyatlari. "IQTISODIYOT VA TURIZM" xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali №4(18) 2024. 51-60-betlar.
8. Шарипов Б. Инклюзив туризмнинг мазмун моҳияти ва назарий ёндашувларнинг қиёсий таҳлили //journal of fundamental studies. – 2023. – т. 1. – №. 1. – с. 32-37.
9. Izzah, A., Kusuma, I.A., Irawan, Y., Cinderatama, T.A., and Nugroho, B.A. (2021). Developing an Android-based City Tour app using evolutionary algorithm. International Journal of Interactive Mobile Technologies, 15 (14): 193. <https://doi.org/10.3991/ijim.v15i14.20275>
10. Пирогова О.Е., Мустафина А.В., Гамидова А.Э. ИНКЛЮЗИВНЫЙ ТУРИЗМ: ПОНЯТИЕ И СУЩНОСТЬ // Управленческое консультирование. 2023. №6 (174). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/inklyuzivnyy-turizm-ponyatie-i-suschnost> (дата обращения: 11.05.2024).
11. Do H. N., Shih W., Ha Q. A. Effects of mobile augmented reality apps on impulse buying behavior: An investigation in the tourism field //Heliyon. – 2020. – Т. 6.- №. 8.
12. Scheyvens, R.; Biddulph, R. Inclusive tourism development. Tour. Geogr. 2018, 20, 589–609-p.
13. Buhalis, D., & Darcy, S. (2011). Accessible tourism: Concepts and issues. UK: Channel Views
14. Dickson, T., Misener, L., & Darcy, S. (2017). Enhancing destination competitiveness through disability sport event legacies: Developing an interdisciplinary typology. International Journal of Contemporary Hospitality Management, 29(3)), 924–946
15. Sotirolou Liasidou, Jorge Umbelino & Éricka Amorim (2018): Revisiting tourism studies curriculum to highlight accessible and inclusive tourism, Journal of Teaching in Travel & Tourism, DOI: 10.1080/15313220.2018.1522289To link to this article: <https://doi.org/10.1080/15313220.2018.1522289>
16. Naniopoulos, A., Tsalis, P., & Nalmpantis, D. (2016). An effort to develop accessible tourism in Greece and Turkey: The MEDRA project approach. Journal of Tourism Futures, 2(1), 56–70.
17. N.Ostdick, (2016). Pros and cons of mobile travel apps.. <http://www.dcsplus.net/blog/3-prosand-cons-of-mobile-travel-apps>. (Accessed 28 March 2019).
18. N.S.Ibragimov. B.Sh.Sharipov. Buxoro viloyatida inklyuziv ziyorat turizmini rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslari. Buxoro-2024.49-63-betlar. <https://president.uz/oz/lists/view/7277>
19. <https://daryo.uz/2024/06/02/singapurda-halal-in-travel-global-summit-2024-mukofoti-buxoroga-topshirildi>